

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**60811200 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari
bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari**

Toshkent - 2023



ISHLAB CHIQLGAN:

- Toshkent davlat agrar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» avgust dagi 367- sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining umumiy tasnifi.....</i>	4
1.1	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.....</i>	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	<i>60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.....</i>	4
1.2.1.	<i>60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....</i>	4
1.2.2.	<i>60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....</i>	5
1.2.3.	<i>60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	5
1.2.4.	<i>60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....</i>	5
2.	<i>60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar</i>	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar..	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	9
2.3.2	<i>60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....</i>	9
2.3.3.	<i>60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi.....</i>	9
	Bibliografik ma‘lumotlar	12
	Kelishuv varag‘i.....	13

1. 60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta‘limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi *60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha)* ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta‘lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- ta‘lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

- oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ot-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) “Qishloq xo‘jaligi” ta‘lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, yer, suv, energetik va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanishni oshirish maqsadida Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi uchun ekinlarning yangi navlari va ularning sifatli urug‘larini yetishtirish; qishloq xo‘jaligi ekinlarining seleksiyasi va urug‘chiligi jarayonlarini jadallashtirish; qishloq xo‘jaligi ekinlari mahsulotlari

hosildorligi va sifatini oshirish, kasbiy faoliyatida texnik vositalardan oqilona foydalanish usul va uslublari yig'indisini o'z ichiga oladi.

1.2.2. 60811200 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

- urug'chilikda xususiy tadbirkorlikning samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;

- xususiy seleksiya ishlarini tashkil etish va boshqarish jarayonlari;

- seleksiya va urug'chilikda qo'llaniladigan ishlab chiqarish jarayonlari;

- ilmiy tadqiqot jarayonlari;

- seleksiya va urug'chilik korxonalari va tashkilotlarining boshqaruv tizimlari.

60811200 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriyat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan majburiy va tanlov fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladilar. Bakalavriyatning yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60811200 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- tashkiliy-boshqaruv;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;

- loyiha-texnologik faoliyat;

- texnologik-ishlab chiqarish.

1.2.4. 60811200 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari

60811200 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim.

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

-seleksiya va urug'chilikka tegishli texnologiya va texnik vositalardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini hisobga olish va baholash;

- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;

- ishlab chiqarish jarayonini boshqarish;

- boshqaruv qarorni qabul qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalanishni hisobga olgan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida seleksiya va urug'chilikda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonlari monitoringini amalga oshirish;

- kasbiy muammolar echimini topish;

- ijrochi jamoa ishini tashkil qilish;

- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;

- birlamchi ishlab chiqarish bo'g'ini ishini tashkil qila olish va boshqarish;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, bajarish va nazorat qilish hamda ish natijalarini baholashni amalga oshirish;

- qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chiligini yuqori darajada tashkil etish;

- qishloq xo'jalik ekinlariga ishlov berish va urug'larini yig'ishtirib olish texnologik xaritasini tuzish, serhosil navlarni tanlash texnologiyasi asosida ishni tashkil qilish va sifatini nazorat qilish;

- qishloq xo'jalik ekinlari urug'chiligini yuritish, urug' olish uchun ekilgan qishloq xo'jalik ekinlari maydonlarida aprobatsiya o'tkazish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash;

- ilg'or texnologik jarayonlarni qo'llash;

- ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiya qilish;

- yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;

- tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.

- xizmat ko'rsatish sohasi me'yoriy-huquqiy hujjatlaridan foydalana olish;

- qishloq xo'jalik ekinlarining yaxshi navlarini tanlash, urug'larni ekishga tayyorlashda uslubiy va amaliy yordam berish;

- qishloq xo'jalik ekinlarini navlarini tanlash va ularning urug'larini yetishtirish texnologiyasi bo'yicha maslaxatlar berish.

Ilmiy – tadqiqot faoliyatida:

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- muammolarni hal etishga va qaror qabul qilishga tayyorgarlik, bilimlarni amaliyotda qo'llash, ish samaradorligi va sifatiga javobgarlik;

- dala tajribalarida variantlar va takrorlanishlarni joylashtirish, kuzatuvlar o'tkazish;

- berilgan mavzu bo'yicha axborotlarni to'plash, ishlov berish, tahlil qilish va tizimlashtirishda ishtirok etish;
- ilmiy ish hisoboti uchun ma'lumotlar tayyorlash;
- qaror qabul qilish, bilimlarni amaliyotda qo'llash, ish samaradorligi va sifatiga javob berish;
- respublika va xorijda chop etilgan qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligiga oid ilmiy-texnik axborotlar manbalarini o'rganish;
- ilmiy tadqiqot natijalari va ishlanmalarni amaliyotga tadbiiq etishda ishtirok etish.

Loyiha - texnologik va texnologik ishlab chiqarish faoliyatida:

- ixtisoslikdan kelib chiqqan holda mahsulotlar sifatini baholashda chet el va vatanimizda qo'llanilayotgan usullarni amalda qo'llay olish;
- loyihalashtirishda zamonaviy axborot-kommunikatsion, informatika va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish;
- faoliyat natijalarini tahlil va sintez qilish, tashkil etish va rejalashtirish, baholash, fundamental, umumkasbiy va amaliy bilimlardan foydalanish qobiliyati va ularga tayyorgarlik;
- mustaqil ishlash qobiliyati, ish jarayonlarini identifikatsiyalash va mahoratdan foydalanish;
- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- amaliyotda axborot texnologiyalarining halqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash;
- yangi navlarni yaratish va tezpishar navlarni ekish;
- qishloq xo'jaligi ekinlari va seleksiya ilmiy tadqiqot institutlarida amaliyotlarini o'tash.

2. 60811200 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- seleksiya va urug'chilikni samarali yuritishni tashkil etish;

- seleksiya va urug'chilik ishchi kuchi, texnika vositalari boshqa materiallarni xisoblay bilishi;

- urug'chilikni tashkil etish va joylashtirish uchun er maydonini taqsimlanishini;

- urug'likni yetishtirish uchun eng yuqori xosilli navlarni, eng samarali texnika vositalarini tanlay olishni;

- qishloq xo'jalik ekinlari navlarini tanlash, ko'paytirish va yetishtirish texnologiyasini;

- tadqiqot natijalarini ishlanmalarni tadbiq etishda kadrning qobiliyatiga ega bo'lishi;

- seleksiya va urug'chilikni takomillashtirish bo'yicha innovatsion ishlanmalar ma'lumotlarni izlab topish va amalga oshirishini;

- mehnat jamoasining mehnatini ilmiy asosda tashkil etish va zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llay olishi;

- ish sifati uchun mas'uliyatni his qilish, o'z bilimlari va maxoratlaridan sifatni boshqarish bo'yicha foydalana olish;

- atrof muhitni muhofaza qilish, mehnat faoliyati xavfsizligini ta'minlash, jaroxatlanish va kasbiy kasalliklar oldini olish bo'yicha chora tadbirlarni amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tash hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar – ta’lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

malakaviy amaliyot – majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: seleksiyoner, urug‘chi, agronom-aprobator.

2.3.2. 60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5520	184
Tanlov fanlar	900	30
Malakaviy amaliyotlar	660	22
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

2.3.3. 60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi (ekin turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	5520	184	
1.01	O‘EYTB1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	DINB1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	FALB1504	Falsafa	120	4	5
1.04	XJTNB1108	Xorijiy til	240	8	1,2
1.05	O‘T O‘SQB1204	O‘zbek (rus) tili: O‘zbek tilini sohada qo‘llash	120	4	2
1.06	JMSB1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.07	OMTB1104	Oliy matematika	120	4	1

1.08	ANFKBKB1204	Analitik, fizkolloid va bioorganik kimyo	120	4	1
1.09	BO'FZB1108	Botanika va o'simliklar fiziologiyasi	240	8	2
1.10	QXMB1106	Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish	180	6	1,2
1.11	QXAKTB1204	Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar	120	4	1
1.12	GENASB1108	Genetika asoslari	240	8	2
1.13	TPAKB1308	Tuproqshunoslik va agrokimyo	240	8	1,2
1.14	DHMELB1308	Dehqonchilik va melioratsiya	240	8	3,4
1.15	USUGB1310	Umumiy seleksiya va urug'chilik	300	10	3,4
1.16	O'SHPB1310	O'simlikshunoslik va paxtachilik	300	10	3,4
1.17	QXEUGB1510	Qishloq xo'jalik ekinlari urug'shunosligi	300	10	3,4
1.18	MEVSABB1508	Mevachilik va sabzavotchilik	240	8	5,6
1.19	O'IQB1510	O'simliklarni himoya qilish	300	10	5,6
1.20	QXMBBTB1508	Qishloq xo'jaligi biotexnologiyasi va mikrobiologiya	240	8	5,6
1.21	QXESTEB1606	Qishloq xo'jalik ekinlari sitologiyasi va embriologiyasi	180	6	5,6
1.22	YEXESUB1606	Em-xashak ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi	180	6	5
1.23	G'TESUB1708	G'o'za-texnik ekinlar seleksiyasi va urug'chiligi	240	8	6
1.24	QXMSQITB1708	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi	240	8	7,8
1.25	DESUB1710	Donli ekinlar seleksiyasi va urug'chiligi	300	10	7,8
1.26	MSPESUB1706	Meva-sabzavot va poliz ekinlari seleksiyasi, urug'chiligi	180	6	7,8
1.27	MESUB1806	Moyli ekinlar seleksiyasi va urug'chiligi	180	6	7
1.28	MESUB1806	Moyli ekinlar seleksiyasi va urug'chiligi	180	6	8
2.00		Tanlov fanlar	900	30	3,4,7,8

			6420	214	
	MALAMM 1422	Malakaviy amaliyotlar	660	22	2,4,6,7
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4	8
		Jami	780	26	2,4,6,7,8
		HAMMASI	7200	240	



Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 631.5+63

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Seleksiya va urug'chilik, qishloq xo'jalik ekinlari navlarini tanlash, ko'paytirish texnologiyasi, seleksiya usullari, boshlang'ich ashyoni tanlash, duragaylash usullari, unuvchanlikni aniqlash, chatishtirish xillari, dala ekinlarining biologik xususiyatlari, qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi va urug'chiligini yuqori darajada tashkil etish; seleksiya va urug'chilikda innovatsion g'oyalar, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv rejasi va fan dasturi, o'quv jarayoni, loyiha-texnologik, pedagogik, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, baholash, sifat nazorati, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektori S.Ya. Islamov

2023 yil « 10 » 07



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limini rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor Sh.Yakubov

2023 yil « 21 » 08

M.O'.

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Rektor K.Komilov

2023 yil « 20 » 07

M.O'.

O'simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot instituti

Direktori S.Aliqulov

2023 yil « 17 » 07

M.O'.

Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Direktori E.Ravshanov

2023 yil « 18 » 07

M.O'.

Toshkent viloyati Bukhara tumani

“ARK BUKA” MChJ

Direktori A.Dushaboyev

2023 yil « 19 » 07

M.O'.



Toshkent davlat agrar universiteti
60811200—Qishloq xojaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) bakalavriat
ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar,
turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

" 10 " 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, professor. S.Ya.Islamov, Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti direktori A.Ravshanov, O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti direktori S.Aliqulov, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori K.Komilov birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60811200—Qishloq xojaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi (ekin turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi P Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktori

A.Ravshanov

O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti direktori

S.Aliqulov

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori, professor

K.Komilov

Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, professor

S.Islamov